

HUQUQIY VORISLIK



HUQUQIY VORISLIK

Huquqiy vorislik — [huquq](#) va majburiyatlarning bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishi. Huquqiy vorislikning umumiy (universal) va xususiy (singulyar) turi [bor](#).

Umumiy Huquqiy vorislikda vorisga barcha huquq va majburiyatlar o'tadi (mas, [meros](#) qoldirishda, yoki bir necha tashkilotlar, ya'ni yuridik shaxslar qo'shilgan-da). Xususiy (shaxsiy) Huquqiy vorislikda biron-bir alohida huquq bir shaxsdan boshqasiga o'tadi (mas, dastlabki kredi-tor huquqining boshqa shaxsga huquq o'tish paytidagi hajmda va shartlarda berilishi).

Shu bilan birga boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lmaydigan huquqlar ham mavjud.

Jumladan, [O'zbekiston](#) Respublikasining FK [aliment](#) talab qilish, [hayot](#) yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash huquqining boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'ymaydi.

Termiz shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi A.Xudoyberdiyev